

imkoniyatiga ega bo'ladi. Uchinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida ESG hisobot tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bunday hisobotlar kompaniyaning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv faoliyatini baholash imkonini berish bilan birga investorlar uchun zarur axborot manbai hisoblanadi. To'rtinchidan, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida davlat tomonidan soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Beshinchidan, xalqaro moliya institutlari va investorlar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali ESG tamoyillariga mos innovatsion loyihalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish amaliyotini jadallashtirish kerak.

Xulosa o'rnida qayd etish kerakki, aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion loyihalarni ESG tamoyillari asosida moliyalashtirish esa korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida ESG tamoyillarini joriy etish innovatsion rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, yashil moliya instrumentlarini rivojlantirish, ESG hisobot tizimini takomillashtirish hamda xalqaro tajribani joriy etish ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi. Kelgusida aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini ESG tamoyillari asosida moliyalashtirish mexanizmini rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash hamda investitsiya muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Isakov M.Y., Ro'ziyeva D.I. *Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi. Darslik.* – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2023.
2. Umarova N.B. *Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda risklarni boshqarish mexanizmlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. 2024-yil, № 6.*
3. Hoshimov U.A. *Innovatsion faoliyatga investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy-nazariy asoslari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali. 2025-yil, № 2.*
4. Yuldashev O.S. *Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi. Iqtisodiyot va ta'lim ilmiy jurnali. 2023-yil, № 5.*
5. Abdullayeva M.Q. *Innovatsion rivojlanishda venchur kapitalining roli. Moliya ilmiy jurnali. 2022-yil, № 3.*

DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI


Ollokulova Feruza Mansurovna
Termiz davlat universiteti doktoranti, PhD

Iqtisodiyotda tub islohotlarni amalga oshirishning joriy bosqichida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni jalb etish, infratuzilmaviy sohalarda davlat va xususiy sektor hamkorligini yo'lga qo'yish, investitsion loyihalarni samarali boshqarishda xalqaro standartlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Keyingi yillarda dunyo iqtisodiyotida barqaror rivojlanish konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari iqtisodiy loyihalarni baholash va

moliyalashtirishning asosiy mezonlaridan biriga aylanmoqda. ESG tamoyillari atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish va samarali boshqaruv tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda DXSh (davlat-xususiy sheriklik) mexanizmi keng qo‘llanilmoqda. Energetika, transport, kommunal xizmatlar, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida davlat-xususiy sheriklik loyihalari davlat byudjetiga tushadigan yukni kamaytirish hamda xususiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari va investorlar tobora ko‘proq ESG standartlariga mos loyihalarni moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat bermoqda. Shuning uchun O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ESG tamoyillari asosida moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik tizimi so‘nggi yillarda faol rivojlanmoqda. 2019-yilda “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun⁷⁷ qabul qilinishi ushbu sohadagi institutsional asosni mustahkamladi. Davlat-xususiy sheriklik ni milliy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlari bilan uyg‘un rivojlantirish bo‘yicha muhim qadamlardan yana biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-son qarorda aks etdi. Ushbu qarorda hujjat “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida DXSh loyihalariga 2030 yilgacha kamida 30 mlrd. AQSh dollari miqdorida xususiy investitsiyalarni jalb etish maqsadi belgilangan.

Qaror energetika, transport, kommunal xizmatlar, ta’lim va sog‘liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng tatbiq etish vazifalarini o‘z ichiga oladi. Tarmoqlar kesimidagi moliyaviy prognozlar shuni ko‘rsatadiki, 2024-2030 yillarda ta’lim tizimiga davlat-xususiy sheriklik asosida 4706 mln. AQSh dollari yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, shundan makabgacha ta’limga - 410 mln, umumiy o‘rta ta’limga - 4117 mln, oliy ta’limga - 176 mln AQSh dollari ajratilishi rejalashtirilgan (1-rasm).



1-rasm. 2024-2030-yillarda O‘zbekiston davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalarni sohalar tarkibi tahlili⁷⁸ (mln. AQSh doll.)

⁷⁷ <https://lex.uz/docs/4329270>

⁷⁸ <https://lex.uz/docs/-7089556> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ayniqsa, energetika sohasida ESG tamoyillariga mos loyihalar kengaymoqda. Masalan, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha xalqaro investorlar bilan hamkorlikda bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar ekologik jihatdan toza energiya ishlab chiqarishni kengaytirish hamda karbon chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Transport infratuzilmasi sohasida ham DXSh loyihalari rivojlanib bormoqda. Zamonaviy avtomobil yo'llari, logistika markazlari va transport tizimlarini modernizatsiya qilish orqali iqtisodiy samaradorlik oshirilmoqda. ESG tamoyillariga mos ravishda transport loyihalarida ekologik ta'sirni kamaytirish va xavfsizlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy sohada, xususan sog'liqni saqlash va ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy klinikalar, diagnostika markazlari va ta'lim muassasalari tashkil etilmoqda. Bu esa ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida ESG mezonlarini to'liq joriy etish hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan deb hisoblaymiz. Ayrim loyihalarda ekologik va ijtimoiy baholash mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi. Bundan tashqari, ESG standartlari bo'yicha monitoring va hisobot tizimi ham takomillashtirishni talab qiladi. O'zbekistonda DXSh loyihalarini ESG tamoyillari asosida moliyalashtirishni rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchidan, DXSh loyihalarini baholash jarayonida ESG mezonlarini majburiy integratsiya qilish zarur. Bunda loyiha tanlash, moliyalashtirish va monitoring bosqichlarida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillari kompleks ravishda baholanadi. Ikkinchidan, yashil moliya instrumentlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, yashil obligatsiyalar, barqaror rivojlanish obligatsiyalari hamda ESG fondlari orqali infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Uchinchidan, davlat-xususiy sheriklik loyihalari uchun ESG monitoring va hisobot tizimini yaratish lozim. Bu investorlar uchun shaffoflikni oshiradi hamda loyihalarning barqaror rivojlanish tamoyillariga mosligini ta'minlaydi. To'rtinchidan, davlat organlari va xususiy sektor vakillari uchun ESG standartlari bo'yicha malaka oshirish va institutsional salohiyatni kuchaytirish muhimdir. Bu loyiha boshqaruvi sifatini oshirishga xizmat qiladi. Beshinchidan, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali ESG tamoyillariga asoslangan DXSh loyihalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish zarur.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, DXSh loyihalari O'zbekiston iqtisodiyotida infratuzilmani rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilishning muhim mexanizmi hisoblanadi. ESG tamoyillarini ushbu loyihalarga integratsiya qilish esa iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda DXSh tizimi faol rivojlanayotgan bo'lsa-da, ESG tamoyillarini keng joriy etish uchun qo'shimcha institutsional va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Xususan, yashil moliya instrumentlarini rivojlantirish, ESG monitoring tizimini yaratish hamda xalqaro tajribani joriy etish muhim ahamiyatga ega. Kelgusida DXSh loyihalarini ESG tamoyillari asosida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga, ekologik muvozanatni saqlashga hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akintoye, A., & Kumaraswamy, M. *Public Private Partnerships: A Global Review* Springer, 2024, p. 33–88
2. Delmon J. *Public Private Partnership Projects in Infrastructure: An Essential Guide (Updated Ed.)* Cambridge University Press, 2024, p: 50-135.
3. Yunusova S. *Davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishni rivojlantirish: i.f.b. falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati – Toshkent, 2022. – 15 b.*
4. Xalilova Sh. *Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishni takomillashtirish: i.f.b. falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati – Toshkent, 2022. – 14 b.*

HUDUDLAR MOLIYAVIY RIVOJLANISHIDA TURIZMNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI

Safarov Manuchexr Axtam o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Turizmni hududlarning moliyaviy rivojlanishi bilan bog'lashda eng muhim jihatlardan biri investitsiyalarni jalb qilishdir. Turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda investitsiya jarayonlari faollashib, turli infratuzilma obyektlarini barpo etish uchun kapital qo'yilmalar hajmi ortadi. Xususan, mehmonxonalar, mehmon uylari va boshqa joylashtirish vositalarini qurish, transport infratuzilmasini rivojlantirish, dam olish va rekreatsiya maskanlarini tashkil etish turizm sohasiga yo'naltiriladigan investitsiyalarning asosiy yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar. Investitsiya, turizm, mehmon uylari, jahon iqtisodiyoti, talab va taklif, eksport, turfirmalar, xaridor bozori, moliyaviy barqarorlik, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy o'sish, turizm industriyasi.

So'nggi o'n yilliklar jahon turizmining global rivojlanishi bilan tavsiflanadi, bu dunyodagi ilmiy-texnik taraqqiyot natijasi bo'lib, xalqaro aloqalarning chuqurlashishiga, transport tashuvlarining sezilarli darajada tezlashishi va arzonlashishiga, dam olish zonalarida yashash qulayligining oshishiga olib keldi. Bularning barchasi jahon iqtisodiyotida turizmning rolini oshishiga olib keldi.

Shu bilan birga, turizmni rivojlantirish jarayonida xususiy sektorning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Xususiy investitsiyalar turizm xizmatlari sifatini oshirish, yangi turistik mahsulotlarni yaratish hamda hududning turistik jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada hudud iqtisodiyotiga qo'shimcha moliyaviy resurslar kirib keladi, kapital aylanishi tezlashadi va hududning umumiy moliyaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tarmoq shaklga ega. Bu mavzuda turli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, ushbu obyekt yaxlitligicha yetarli chuqur o'rganilmagan. Ushbu mexanizm turizm tarmog'ining subyektlari o'rtasida, makro va mikro-iqtisodiy komponentlarni qo'shgan holda iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilishni nazarda tutadi. "Rivojlantirish" terminini kiritish ushbu mexanizmning nazariy hamda amaliy yo'nalganligini anglatadi, chunki ichki turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi boshqa bir qator vazifalarni hal qilishga ham qaratilgan bo'lishi mumkin. Ichki turizmni rivojlantirish maqsadlari turistik